

**O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK VA FIZEOLOGIK O‘ZGARISHLARNING RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI.**

**ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi  
Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi,  
ADPI talabalari  
Odiljonova Sabohatoy Akbarjon qizi,  
Xalilov Boburxon**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘smirlik davrida psixologik va fizeologik o‘zgarishlarning rivojlanishdagi ahamiyati hususida so‘z yuritilgan. O‘smirlik davri eng inqirozli davr sifatida yosh davrlari ichida ajralib turadi. O‘smirlik davrida psixologik va fizeologik o‘zgarishlarning shaxs sifatida rivojlanishidagi ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘tish yoshi, o‘smirlik davri, psixologik, fiziologik, krizis davr, psixik rivojlanish, empatsiya, qiyin davr.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Davlatimiz qonunchilik tizimini mazmuni haqida munosabat bildirib ta’kidlaganlaridek – “Bugun O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan bir davrda biz “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan bosh tamoyilga amal qilmoqdamiz, ushbu so‘zlarining mazmun mohiyati bugunda yurtimizda sodir etilayotgan o‘zgarishlar insonparvarlik, bunyodkorlik va xalqchilik asosida sodir bo‘layotganini va barcha say-harakatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tabiatidan kelib chiqayotganini ko‘rsatadi.

O‘tish yoshini turli olimlar turlicha chegaralaydi. O‘smirlik davri asosan 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ba’zi o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi.[1]“Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas “ aynan mana shu ta’rif o‘smirlik davri uchun juda xosdir. Bu yoshda o‘smir rivojlanishda keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. O‘smirlik-bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan harakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotida turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘otga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga talluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham harakterlanadi. Bo‘yga o‘sish bir tekis bormaydi: qiz bolalar 5-7 sm o‘ssalar, o‘g‘il bolalar 5-10 sm o‘sadilar. Bo‘yiga qarab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi. Og‘iz boshlig‘i va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o‘zgaradi. Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘proq darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminroq bo‘lib qoladi, do‘rrillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur‘at bilan o‘ssa ham mustaxkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur‘ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning besunaqay hatti-xarakatlarida, yurish-turishlaridagi qupollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi.[1]

Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a’zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki jinsiy yetilishning boshlanish davri o‘g‘il bolalarda 12-13 yoshda, qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi. Ko‘pchilik o‘g‘il bolalar hozirgi vagtga jinsiy yetilish 15-16 yoshda, qiz bolalarda 13-14 yoshlarda kuzatiladi. O‘qituvchilar sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki. Jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta’sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma’lum bo‘lgan qandaydir xislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma’lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo‘lishi tabiiydir. O‘smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so‘z boyligini oshishi hisobiga bo‘lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo‘ladi. Bu davrda o‘smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlandi Aynan o‘smirlik davridan boshlab, inson aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

tushuna boshlaydi o’smirni ko’pincha muomalada so’zlarni ishlatish qoidalari “qanday qilib to’g’ri yozish kerak?”, “qanday qilib yaxshiroq aytish mumkni?” kabi savollar juda qiziqtiradi. Organizmning fiziologik o’zgarishining tezlashuvi natijasida bu yoshda bola o’zida hayajon, ko’tarinki kayfiyatda uyg’onish va ba’zan o’z-o’zini yerga urish hissini sezadi. Bu davrda bola o’ziga nisbatan ko’proq diqqat -e’tiborni talab qiladi. U o’zini katta odam deb hisoblaydi va shaxsiga nisbatan kattalardek munosabatni talab qiladi. Lekin maktabda, kollej yoki litseyda va uyda uning mavqei avvalgidek qolaveradi. Natijada bolada o’smir yoshi inqirozi boshlanadi. O’smirlik yoshi inqirozi emansipatsiya, tengdoshlar bilan guruhlashish va hobbii reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Emansipatsiya reaksiyasi xolatida bola kattalar nazoratidan chiqish va mustakillikka erishishni ho’xlaydi, unda o’zining “men”i paydo bo’ladi. Kattalar tomonidan o’tkazilmoqchi bo’lgan kichkina ta’kib ham bolaning xulqining buzilishiga sabab bo’lishi mumkin. Tengdoshlar bilan guruhlashish bolada o’zaro harakat, jamoa tartibiga buysinish, hurmatga ega bo’lish va o’z ho’xshidagi mavqega ega bo’lish qobiliyatlarini shakllaydi. Bolada o’z-o’zini baholash xususiyati o’sadi. U tengdoshlarining fikrlarini kattalarning tanqidiga nisbatan ko’proq qadrlaydi.

Bu yoshda bolada juda katta psixologik o’zgarishlar yuzaga keladi. Birinchi galda bu yoshdagi bolalarda uyatchanlik va tezda xafa bo’lish kuzatiladi. U arzimagan narsalardan ham xafa bo’ladi va bunga katta ahamiyat beradi. U o’z tashqi ko’rinishidan uyaladi, xarakatlari bukchaygan holatga keladi. Chunki, u xali o’z tanasini ilgarigidek boshqara olmaydi. Shunga o’xshab o’smir o’z hissiyotlarini ham jilovlay olmaydi. U o’zini katta odam deb hisoblaydi va atrofda gilaridan ham shunga yarasha munosabatni talab qiladi. Erkinlikni talab qilish ularda qo’rquv uyg’otadi. Deyarli barcha o’smirlar ota-onasi ularning erkinligini siqib qo’rganligidan shikoyat qiladilar. O’sayotgan bola uz haq-huquqini talab qilishi tabiiydir. Lekin ota-ona uning har bir talabini bajarishga majbur emas. O’smirlar ustidan rahbarlik qilish zarur. Ko’pincha ularning ba’zilari ota-onalari ular bilan qat’iyatliroq bo’lishini ho’hlashadi. Bolani to’g’ri yo’lda uni o’qitayotgan qoidalar emas, sog’lom tarbiya va unga bo’lgan ishonch ushlab turadi. O’smirga esa qoida ham, ota-onasining hayotdagi bo’shliklarni to’ldiradigan bu qoidalarni o’rgatish uchun unga berayotgan e’tibori ham kerak. O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’kituvchilariga ko’rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo’li bilan ham osongina ko’rish mumkin. O’smirlik davri “o’tish davri”, “krizis davri”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko’rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o’smirlarning hatti-xarakatida muqobil, yangi sharoitlarda o’z o’rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O’z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni “psixik rivojlanishdagi krizis” deb nomlagan. O’smirlar xaddan tashqari g’ayratli va besaramjon bo’ladilar. Ular uchun bekorchilik juda ogirdir, bir xil tarzda ishlaridan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo’yadilar, bu esa ularning ta’lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Binobarin, o’smirlarga muvaffaqiyatli ta’lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va har turli foydali mashg’ulotlarga jalb qilish hamda, qiyinroq, lekin kuchlari yetadigan ishlar bilan shug’ullantirish nihoyatda muhimdir. 5-6 sinf o’quvchilariga sinfdagi o’zi egallagan mavqeiga katta e’tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6-sinfdan boshlab o’quvchilar o’z tashqi ko’rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o’zaro munosabatlariga e’tibor bera boshlaydilar. 7-sinf o’quvchilarida esa o’z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o’quvchilari esa mustaqillik, o’ziga xoslik, do’stlik va o’rtoqlik bilan bog’liq bo’ladigan shaxsiy hislatlar paydo bo’ladi.”Oltinchi sinf muammolari”ga bag’ishlangan tadqiqot ishida shu yoshdagi bolalarning xulq-atvor xususiyatlari va turli xil fanlar bo’yich o’zlashtirishning pasayishi bilan bog’liq bo’lgan muammolarning o’sib borishi quyidagicha namoyon bo’lgan: Oltinchi sinf o’quvchilari to’rtinchi sinfga nisbatan 6-marta ko’proq qaysarlik qilishlari, 10-marta ko’prok o’qituvchilarga qarshilik ko’rsatishlari, 7-marta ko’prok boshqalar irodasiga to’sqinlik qilishlari, 9-marta ko’prok boshqalar kamchiliklariga e’tibor berishlari, 5-marta ko’prok faqat o’z ho’hish-istaklariga bo’ysunishlari va nihoyat 42-marta ko’prok o’z hatti-xarakatlari motivlariga ega bo’lmasliklari aniqlangan [1](Krakovskiy A.P 1970). 11-12 yoshdan boshlab o’smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O’smir bu yoshda huddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o’rgana boshlaydi. 13-14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig’i keskin ko’tariladi. Bunday holatlarda o’smir atrofda gilar narsa va voqealarga to’liq diqqatini qarata olmaydi[2]

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

Xulosa qilib aytganda ota-ona bilan bo’ladigan kelishmovchiliklar o’smir o’zini katta his qilib, ota-onasining o’rnini egallamoqchi bo’lganligi oqibatida yuzaga keladi. Albatta, ota-onaga bu yoqmaydi. Ota-ona va farzand o’rtasida kelishmovchiliklar paydo bo’ladi. Ba’zida bu ota va qiz, ona va o’g’il o’rtasidagi ziddiyatlar ham bo’lishi mumkin. Otaga qiz, onaga esa o’g’il bola yaqinroq bo’ladi, deyishadi. Lekin, vaqt o’tgan sari, ya’ni balog’at yoshida bola buni unuta boshlaydi. Chunki, oiladan tashqaridagi boshqa odamlarga o’z his-tuyg’ularini yo’naltirgan bo’ladi. U ota-onaga bo’lgan munosabatini yuqotishga harakat qila boshlaydi. Agar uyda o’smir yoshini hisobga olib, bola bilan o’zaro do’stona, yumshoq muomalada bo’linsa, sharoitga qarab farzandining hohish istaklarini inobatga olib ish ko’rilsa, farzandga shaxs sifatida qaralsa, u buni sezadi va yaxshi yo’ldan yurishga harakat qiladi. Aks xolda o’smir ko’chadan o’ziga boshqa mashg’ulot topadi va yomon yo’lga yurib ketish ehtimoli katta bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Nishanova, D. Abdullayeva, G. Baykunusova “O’smirlilik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” Toshkent-2015
2. E. G’. G’oziyev, K. K. Mamedov “Kasb psixologiyasi” Toshkent-2003
3. V. M. Karimova “Ijtimoiy psixologiya asoslari” Toshkent-1994
4. I. Ivanov, M. Zufarova “Umumiy psixologiya “ O’z.FMJ 2008
5. <https://arxiv.uz>